

ANDIJON MASHINASOZLIK INSTITUTI

“FALSAFA”



5-Ma`ruza

TABIAT FALSAFASI

Reja:

1. Tabiat tushunchasi.
2. Tabiat va jamiyatning o'zaro aloqadorligi.
3. Ijtimoiy ekologiya muammolari.

Aripova Zulfiyaxon

«Tabiat» tushunchasini an'anaviy ravishda *keng va tor* ma'noda talqin etish mumkin. Birinchi holda bu tushuncha bizni o'rab turgan jamiki borliqni, butun dunyoni uning barcha voqea va hodisalari bilan: «cheksiz o'zgarmas materik bo'laklardan tortib kosmik tizim va hayvonot olami hamda ijtimoiy hayotni» o'ziga qamrab oladi. Albatta, bunday tushunishda jamiyat va tabiatni bir-biriga qarama-qarshi qo'yish mantiqan noto'g'ri. Agar tabiat barcha borliqni, voqelikni o'ziga qamrab olsa, unda inson ham, jamiyat ham tabiatning bir bo'lagi hisoblanadi.

Agar biz «tabiat tushunchasini» *tor* ma'noda, ya'ni borliq, butun dunyo ma'nosida emas balki inson va jamiyatni o'rab turgan tabiiy geografik hodisa sifatida talqin qilsak unda bu tushuncha butunlay boshqa ma'no kasb etadi. Bu holda tabiat deganda inson yashashi uchun yaratilgan *jamiyatdan tashqari mavjud butun moddiy dunyo* tushuniladi. Bu tabiiy sharoitlar o'ziga quyidagi komponentlarni oladi: 1) iqlim; 2) joyning tuzilishi; 3) yerning hosildorlik darajasi; 4) o'simlik va hayvonlar; 5) foydali qazilmalar va boshqa xom ashyo manbalarining mavjudligi; 6) suv resurslari va boshqalar.

Ijtimoiy taraqqiyotda jamiyatni o'rab turgan tabiiy borliqning ahamiyati va mohiyatining muhimligi faylasuflar tomonidan allaqachon isbotlab berilgan. Jamiyat hayotida tabiatning roli haqida Lao-tszy, Konfutsiy, Demokrit, Gippokrat, Platon, Aristotel, Farabi, Ibn Sina, Ibn Xaldun, Jan Boden va boshqa faylasuflar juda ko'p gapirganlar va yozganlar. Lao-tszy yozgan edi: «Inson uchun namuna – yerdir. Yer uchun namuna – osmondir. Osmon uchun namuna – yo'ldir (Dao)». Yo'l uchun (Dao) namuna o'z-o'zidan ro'y beruvchi tabiiylik» Jan Boden ta'kidlashicha, xususan, jamiyat inson xohishidan tashqarida tabiiy ravishda tabiat qonunlariga bo'ysungan holda shakllanadi va rivojlanadi.

Geografik diterminizmning nazariy asosi va bunyodga kelishi frantsuz faylasufi SHarl Monteskyo (1689-1755) nomi bilan bog'liq. U shunday deb yozgan edi: «iqlim xukumronligi barcha hukmronlikdan ustundir», «issiq iqlim xalqlari qariyalardek sust, sovuq xalqlari esa yoshlardek harakatchandir» va hokazo. Biroq u vaqt o'tishi bilan ijtimoiy faktrlarning ham ta'siri kuchayishini ham inkor etmagan: «yovvoyilarni deyarli har doim tabiat va iqlim boshqaradi», lekin «odamlar mehnat va foydali qonunlar yordamida yerni yashash uchun yana ham yashash uchun qulay qilib olganlar».

Geografik diterminizm *K. Ritter* i *F. Rattsel*, *G. T.Boklb*, *E. Reklyu*, *L.m. Mechnikov* va boshqa nemis tadqiqotchilari izlanishlarida yanada rivojlantirildi. Masalan, *T.G.Boklb* (1821-1862) ning takidlashicha agar biz qaysi bir fizik detallar insoniyatga eng kuchli ta'sir ko'rsatishini aniqlamoqchi bo'lsak, ularni biz quyidagi to'rt guruhga ajratishimiz qiyin emas, ya'ni: iqlim, ovqat, yer va tabiatning umumiy ko'rinishlari. *L.Mechnikov* o'zining «TSivizilitsiyasi va buyuk tarixiy daryolar» nomli mashhur kitobida insoniyat tarixini uch turdagi tsivilizatsiyaning almashinuvining natijasi deb isbotlagan: 1) daryolar tsivilizatsiyasi (Nil, Gang, Ind, Yantszy, Xuanxe, Tigr, Yevfrat kabi daryo, basseynlarining shakllanishi bilan bog'liq); 2) dengiz (avvalambor - O'rta yer dengizi) tsivilizatsiyasi; 3) okeanlar (global) tsivilizatsiyasi.

Fridrix Rattselb (1844-1904) «geopolitika» nomli nazariyaning asoschisidir. Uning mohiyati shundan iboratki, davlatlar «hayotiy borlig'ini» kengaytirish uchun kurashuvchi tirik biologik organizmlar sifatida talqin etiladi. F. Rattselbning fikrini K. Xausxofer va E.Obst (Germaniya), R. CHellen (SHvetsiya), X. Makkinder (Velikobritaniya), A. Mexen (AQSH) va boshqa tadqiqotchilar qo'llab-quvatlaganlar va rivojlantirganlar. Geopolitika nazariyasi fashizm mafkurasi bo'lganligi yana bir bor turli nazariyalarning yaratalishida intellektual o'yinlarining xavfli ekanligini isbotlaydi. Bugungi kunda ko'pchilikni tashkil etmagan nazariyotchilar determinizm geopolitikani ochiq va to'g'ridan-to'g'ri targ'ib qilmoqdalar. Lekin bu zamonaviy ijtimoiy falsafa jamiyat taraqqiyotida tabiatning rolini butunlay xas-po'shlaydi degani emas. Unga faqat o'ziga loyiq darajada o'rin beriladi.

Insonni o'rab turgan borliqni shartli ravishda ikki qismga ajratish mumkin. Ulardan biri («Birinchi tabiat») - o'rab turgan tabiiy borliq. U o'ziga biosfera (o'simlik va hayvonlar), gidrosfera, atmosferaning pastki qatlami, litosferaning yuqori qatlami, ya'ni «geografik muhit»ga nisbatan tabiatning kattaroq qismini o'z ichiga oladi. *Geografik muhit* deganda-tor ma'noda o'ziga tabiatning jamiyat hayotiga, avvalam bor, ishlab chiqarish jarayoni amalga oshadigan qismini o'zida mujassamlashtirgan muxit tushuniladi.

O'rab turgan muhitni kengroq ma'noda tushuntirish uchun xilma-xil tushunchalar taklif etilgan va etilmoqda: «biogeosfera», «geobiosfera», «vitasfera» (lotin tilida «vita» - hayot), «ekosfera», «landshaftnaya sfera» va boshqalar. Biz inson xohishi va ongiga bog'liq bo'lmagan ob'ektiv ravishda mavjud bo'ladigan va unga nisbatan birlamchi deb hisoblangan «*birinchi tabiat*» tushunchasini qo'llaymiz. SHunga ko'ra, «*ikkinchi tabiat*»ni yaratuvchi-inson o'z qo'li bilan yaratgan sun'iy muhit tashkil qiladi.

«Ikkinchi tabiat» inson yaratgan barcha narsani o'z ichiga oladi: mehnat qurollari, maishiy buyumlar, qurilishlar, sa'nat asarlari. So'zsiz, «ikkinchi tabiat» «birinchi tabiat» bilan uzviy bog'langan: insonning mehnat jarayonida tabiiy boyliklar va ashyolar zarur narsalarga aylantiriladi, hayvonlar uy hayvoniga, o'simliklar esa madaniy boylikka aylantiriladi va boshqalar. Inson o'zining faol hayotiy jarayonida «ikkinchi tabiat»ni, ya'ni su'niy muxitning xajmini ko'paytira boradi, bu esa xar doim xam «birinchi tabiat»ga, insonga va jamiyatga foydali bo'lavermaydi. TSitseron o'z vaqtida aytgan edi: «Tabiatning yaratuvchanligi san'at yaratuvchanligidan oliyroqdir».

Inson tabiatni ibodat maskani deb emas balki omborxonaga deb qarab uning ichki turg'unligini buzadi. Insoniyatga 370 ming xil o'simlik turi ma'lum, undan 80 ming xilini iste'mol qilish mumkin, o'zlashtirilgani esa 3 ming (1% dan kam), bulardan esa juda ko'p qismi unchalik keng tarqalmagan. O'simliklardan bor yo'g'i 12 turi (bug'doy, guruch, makkajo'xori va boshqalar)lar barcha xosilning 90%ini beradi. Xuddi shunday xolatni hayvonot olamida xam kuzatish mumkin. Bizga ma'lum 1mln. turdan 100 turigina (ya'ni 0,1%) uy hayvoniga aylantirilgan, ulardan faqat 10 turdagi hayvon esa (sigir, qo'y, tovuq va boshqalar) maxsulot beradi.

Yer yuzida hayot degan fenomen paydo bo'lgunga qadar rivojlanish hayot bilan bog'liq bo'lmagan *abiotik* faktorlar ta'siri ostidagina amalga oshgan: suvlar, gazlar (kislrod, azot va boshqalar), uglerodlar, menerallar va hokazolarning aylanishi. Tirik mavjudotning paydo bo'lishi bilan *biotik* faktorlari xam faoliyat ko'rsata boshladi. Natijada, tabiat aniq ravishda ikki qismga tirik va notirik tabiatga ajradi. Materiya taraqqiyotining ma'lum bir bosqichi sifatida tirik mavjudot tabiiy sharoitlarning ma'lum bir qonuniy o'zgarishi natijasida o'z-o'zidan bunyotga kelgan moddiy shakldir. Darvin fikriga ko'ra tirik mavjudotning shunday xarakterli tomonlari belgilanadi: bo'y, o'z-o'zida ko'payish, o'zgaruvchanlik, merosxo'rlik, tabiiy tanlash va yashash uchun kurash.

Zamonaviy ilmiy bilish taraqqiyoti darajasi tirik mavjudotni barcha xususiyatlariga ko'ra ikki muhim guruhga ajratishga imkon beradi: a) tirik mavjudotning tashqi dunyo narsalarini o'z manfaatiga moslagan holda o'zgartirib o'zlashtishi; b) tirik mavjudotning turli xususiyat va sifatlarni o'zlashtirish va mustaxkamlash qobiliyati.

Insonning paydo bo'lishi tabiatga ta'sir ko'rsatishning yangi *antropogen* faktorining shakllanishiga olib keldi. Inson va jamiyat taraqqiyotining turli bosqichlarida ularning ahamiyati va roli bir xil bo'lavermadi. Jumladan, «inson paydo bo'lishining dastlabki davrlarida o'zini boshqa tirik mavjudotlardan alohida ajratmas edi. U o'zini barcha boshqa organik dunyo bilan genetik va uzviy bog'liq deb bilar edi».

Inson rivojlangan sari uning madaniyati ham murakkablashib, ishlab chiqarishi tezlashib, yashash faoliyati jarayoni «sun'iylashib» bordi. U tabiatdan, tabiiy muxitdan borgan sari uzoqlashib bordi. Lekin bu bugungi taraqqiyot davrida tabiat va jamiyatning o'zaro aloqasi va ta'siri o'z dolzarbligi va ahamiyatini yo'qotdi degani emas. Bugungi kunda bu aloqalar faqat boshqacha tus olgan: inson tabiiy faktorlarga butunlay bog'liq emas, aksincha, cheklangan, himoyalangan tabiat aql va onga nisbatan kuch va qudrati ancha takomillashgan insonga ko'p jixatdan qaramdir.

Ilmiy texnika inqilobi asrida sotsioantropogen faktorlarining, yadro inergiyasi, kosmos va kompyuterlashtirishning tabiiy muxitga ta'siri o'z mashtabiga ko'ra tabiatning o'zining tabiiy faktorlarining ta'siri bilan solishtirish mumkin: jamiyat yaratgan «texnomassa» xajmini tabiat yaratadigan biomassa hajmi bilan qiyoslash mumkin. Bulardan tashqari, sun'iy radiatsiya, «azon teshiklari», ko'pgina tabiiy elementlar sonining butunlay o'zgarishi, tabiatda ma'lum bo'lmagan yangi narsalarni sintez qilish va boshqalarni ko'zda tutish kerak. SHunday qilib, tabiiy tarix (tabiat tarixi) borgan sari jamiyat va inson taraqqiyoti tarixi bilan chambarchas bog'liq bo'lib ketmoqda.

«Noosfera» tushunchasi grek tilidan olingan - *noos* «aql» degan ma'noni anglatadi. SHunday qilib etimologik jixatdan *noosfera* – aql doirasiga oid tushunchadir. Bu tushuncha frantsuz faylasufi Eduard Lerua (1870-1954) va P'yer Teyyar de SHarden (1881-1955)lar tomonidan XX asrning 20 –yillarida taklif etilgan va ishlab chiqilgan. 1927 yili bir vaqtning o'zida Leruaning «Mafkuraviy talab va evolyutsiya fakti» va SHardenning «Iloxiy muxit» nomli kitoblari nashr etildi, aynan shu asarlarda noosfera falsafiy ta'limotiga asos solindi. Uning mohiyatini Lerua shunday talqin etdi: «Ong borgan sari erkin va toza bo'la boradi va oliy darajada shakllangan ong yaratiladi – ruhiyat (*duxovnost'*) shunchalik oliy darajaga yetadiki unda kapalak qo'g'irchoqdan ajralishga intilgandek noosfera ham biosferadan ajralishga intiladi».

Boshqa soʻz bilan aytganda, insoniyat evolyutsiyasi maʼlum bir vaqtgacha biosfera doirasida amalga oshadi. Lerua biosfera va noosferalarni xitoy devori bilan bir-biridan ajratmaydi: «koʻpchilik xollarda ular bir –biriga aralashib ketadi, ikkinchisi birinchisining qayta yaralganidir». Lekin sekin-asta shunday xolat vujudga keladiki, insonning toʻxtovsiz oʻzgaruvchi rivojlanuvchi ongi chegarali va cheklangan biosferaga sigʻmay qoladi. U «insoniy, tafakkur qiluvchi, oʻz mohiyatiga koʻra fikr» ning yangi bir holatini noosferani vujudga keltiradi.

Teyyar de SHarden noosfera taʼlimotini yanada rivojlantirdi. Uni aytishicha taraqqiyot biosfera doirasi bilangina chegaralanmaydi. SHarden postulatlaridan biri shuki, dunyoda hamma narsa uzluksiz ravishda murakkablashadi va rivojlanadi. U dunyoning uzluksiz taraqqiyotining toʻrt bosqichini ishlab chiqdi: a) hayotdan avval; b) hayot; v) fikr; g) hayotdan oliylik. «Fikr» stadiyasi inson paydo boʻlishi bilan xarakterlanadi, u psixik va ruxiy energiyani quyuqlashtiradi, jamlaydi va noosferani yaratadi. SHarden kontseptsiyasining hususiyati shundan iboratki, u ilmiy tafakkurni diniy eʼtiqod bilan sintez qilishga harakat qilgan. Aynan shundan kelib chiqqan xolda toʻrtinchi stadiya («hayotdan oliylik») kelib chiqqan, unda inson ongidan oliyroq substantsiya, yaʼni xudo tushunilgan. Yaratuvchi deb «Omega nuqtasi» - Xegelning absolyut haqiqat haqidagi gʻoyasiga yaqin boʻlgan tushuncha eʼlon qilinadi. SHarden fikricha, barcha narsalar shunchaki taraqqiy etmaydi, balki teleologik, yaʼni maʼlum bir maqsad, ideal tomon intilish orqali rivojlanadi. SHunday qilib, noosferaning teyyarcha kontseptsiyasini toʻliq ravishda teleologik kontsepsiya deyish mumkin.

Noosfera ta'limoti rus faylasufi *V.I.Vernadskiy* (1863-1945) tadqiqotlarida yana ham rivojlantirildi va mukammallashtirildi. 1925 yilda (ya'ni E.Lerua va P.Teyyar de SHardenlarning tadqiqotlari nashr etilmasdan avval) «Insonning avtotrofligi» nomli maqolani e'lon qiladi.

Vernadskiy kontseptsiyasining asosiy g'oyasi bisferada evolyutsion taraqqiyotning mavjudligidir. Teyyar de SHardendan farqli ravishda Vernadskiy evolyutsiya haqidagi g'oyaning mifologik va diniy talqiniga bo'lgan har qanday harakatlarni qat'iy ravishda inkor etadi. U bunda asosli ravishda tabiiy fanlar: fizika, ximiya, biologiya, Geologiya va boshqalarda mavjud empirik ma'lumotlarga tayanadi. Vernadskiy uchun noosfera - bu faqat inson ongi, inson tafakkuriga bog'liq bo'lmasdan, tabiiy jarayonlarning hayotda o'z-o'zidan va aniq ravishda ro'y berishi bilan bog'liqdir, «bizning planetamizdagi yangi geologik hodisadir».

Noosfera kontseptsiyasi taraqqiyotining muhim ilmiy-falsafiy natijasi sifatida tabiat va jamiyatning *ko-evolyutsiya* (hamkorlikda, paralel, o'zarobog'liqlikda rivojlanish) nazariyasining shakllanganini eslab o'tish mumkin. Bu ikki yirik tizimning bir-biriga qarshi turishi va kurashi emas, balki ularning uzviy birligi insoniyatning keyingi taraqqiyotini ta'minlashi mumkin.

E`tiboringiz uchun Rahmat!